



Date: 09 June 2026

## OILADAGI AJRIMLARNING FARZANDLAR TARBIYASIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Abdiraimova Shaxnoza Sotiboldiyevna

Olmaliq shahar 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oiladagi ajrimlarning farzandlar ruhiy holati, xulq-atvori va tarbiyasiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ajrimning bolalar rivojlanishiga salbiy oqibatlarini kamaytirish va ularning sog'lom kamol topishiga ko'maklashuvchi omillar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** oila, ajrim, farzand tarbiyasi, psixologik ta'sir, ruhiy salomatlik, bolalar rivojlanishi.

### Kirish

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Farzandning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va ruhiy kamoloti ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq. Oilada yuz beradigan nizolar va ajrimlar esa nafaqat er-xotin munosabatlariga, balki farzandlarning psixologik holatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ajrim jarayonining keskin va ziddiyatli kechishi bolalarda turli ruhiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Ajrimning bolalar ruhiyatiga ta'siri.** Ota-onaning ajralishi ko'pchilik bolalar uchun stressli hayotiy voqea hisoblanadi. Bunday vaziyatda bolalar o'zlarini xavotirli, tushkun yoki yolg'iz his qilishlari mumkin. Ayrim hollarda ular ota-onasining ajralishida o'zlarini aybdor deb hisoblaydilar. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Kichik yoshdagi bolalarda qo'rquv, yig'loqlik, ota-onaga haddan tashqari bog'lanib qolish holatlari kuzatilsa, o'smirlik davridagi farzandlarda tajovuzkorlik, jahldorlik, o'qishga qiziqishning kamayishi va ijtimoiy muammolar paydo bo'lishi mumkin.

**Farzand tarbiyasiga ta'siri.** Ajrimdan keyin farzand tarbiyasida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ota yoki onaning oiladan uzoqlashishi natijasida bolada tarbiyaviy nazorat susayishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onaning tarbiya usullaridagi farqlar bolada ikkilanish va tartib-intizom muammolarini keltirib chiqaradi. Ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ba'zan oilaviy munosabatlarga nisbatan salbiy qarashlarni shakllantirishi mumkin. Bu esa ularning kelajakdagi oilaviy hayotiga ham ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

### Salbiy oqibatlarni kamaytirish yo'llari

Ajrim har doim ham bolaga bir xil darajada zarar yetkazmaydi. Ota-onaning farzand manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi salbiy ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Buning uchun:



Farzandni ota-onalar o'rtasidagi nizolarga aralashtirmaslik;  
Bolaga ajrim sabablarini uning yoshiga mos ravishda tushuntirish;  
Har ikki ota-onaning farzand bilan muntazam muloqotda bo'lishi;  
Farzandning his-tuyg'ulariga hurmat bilan yondashish;

### **FARZAND TARBIYASIDA ASOSIY 5 TASIR**

Farzandingiz bilan ko'proq vaqt o'tkazing.

To'g'ri ishlaringiz ko'p, ro'zg'or tashvishlari bilan bandsiz, charchaysiz.

Farzandlaringizni ham o'ylaysiz, albatta. Bekamu-ko'st qilib kuygansiz, ko'ngliga qaraysiz, aytgan narsasini muhayyo qilib qo'ygansiz. Planshet, telefon, kompyuter, velosiped, xullas hamma narsasi bor. Dam olish joylariga vaqtingiz yo'qligidan kimnidir ma'sul qilib jo'natasiz.

To'garaklargayam berib qo'ygansiz, sportlargayam boradi. Xullas, o'ylab qarasangiz farzandingizdayam ortiqcha vaqti yo'q.

Ammo, farzandingiz bilan shaxsan o'zingiz o'tkazgan vaqtingiz muhim. Sotib olib bergan narsalaringiz vaqt o'tib esidan chiqib ketishi mumkin. Ammo birgalikda o'tkazgan vaqtingiz bir umr esida qoladi. Inson baxtli onlarini doim esida saqlaydi. Bu onlar qanchalik ko'p bo'lsa, bolangiz shunchalik baxtli inson bo'lib voyaga yetadi va sizdan o'rnak olib ulg'ayadi. Birga o'yin o'ynashingiz, birga dam olish maskanlariga borishingiz, birgalikda ovqat qilishingiz va shunchaki sayr qilishingiz mumkin.

Ba'zan hamma ishlaringizni yig'ishtirib qo'yib, birga vaqt o'tkazishga harakat qiling. Bu aslida siz uchun ham foydali. Ayniqsa, farzandingiz bilan muammolaringiz bo'lsa, o'zaro ishonch paydo bo'lishiga yordam beradi. Butun dunyo kutib turadi, farzandingiz esa yo'q. Ko'z ochib yumguncha ulg'ayib qoladi, keyin istasangiz ham yoningizda olib o'tira olmaysiz. Zarur hollarda psixolog mutaxassis yordamidan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Xulosa**

Oiladagi ajrim farzandlarning ruhiy holati va tarbiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ajrim oqibatida bolalarda xavotir, tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik va xulq-atvor muammolari yuzaga kelishi mumkin. Biroq ota-onalarning mas'uliyatli munosabati, sog'lom muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali ushbu salbiy ta'sirlarni kamaytirish hamda farzandlarning barkamol rivojlanishiga yordam berish mumkin.

**Oilada muhabbat bo'lmasa, hayotning boshqa jabhalarida ham qalb istagan natijalar to'liq sezilmaydi.** Chunki insonning eng katta kuch manbai — uning ichki xotirjamligi va yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlaridir. Oilada muhabbat, hurmat va tushunish bo'lsa, ayolning qalbi ochiladi. U o'ziga ishonadi. Farzandlariga mehr bilan yondashadi.



Date: 09 June 2026

Hayotdagi maqsadlari sari yengilroq qadam tashlaydi. Muhabbat — tasodifan paydo bo‘lib qoladigan tuyg‘u emas. Uni tushunish, asrash va rivojlantirish kerak. Shuning uchun, aziz ayollar, faqat uy ishlarini emas, qalbingizni ham tarbiyalang.

O‘zingizni anglashni o‘rganing. His-tuyg‘ularingizni tushunishni o‘rganing. Sog‘lom munosabatlar qurish ilmini o‘rganing. Chunki baxtli oila — tasodif mahsuli emas. U bilim, sabr, ongli harakat va muhabbat bilan bunyod etiladi. **O‘z ustingizda ishlashga sarflagan har bir kuningiz — oilangizdagi muhabbatga qo‘yilgan eng katta sarmoyadir.** Muhabbatli ayol baxtli oilani yaratadi. Bilimli ayol esa o‘sha baxtni yillar davomida saqlab qola oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lev Vygotsky. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyalari.
2. G.B Shoumarov “Oila psixalogiyasi”Toshkent sharq 2010
3. D.Abdullayeva “Oila psixalogiyasi”Toshkent 2015
4. Oila psixologiyasi va pedagogika bo‘yicha ilmiy manbalar.

